

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximdzhanova Malikaxon Gapurdzhanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 16 December 2025**Accepted:** 1 January 2026**Published:** 15 January 2026*Article / Original Paper***ANALYSIS OF GLOBAL EXPERIENCE IN ECONOMIC AND ECOLOGICAL
OPTIMIZATION OF WATER RESOURCE USE****Umurzakova Umida Nosirjanovna**

Associate Professor, PhD,

Department of Social and Humanities

Navoi Innovation University

Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

Master's Student in Economics

Navoi Innovation University

Group IQ-101-25M

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic and ecological optimization of water resource use based on global experience. In the context of accelerating climate change, limited water availability, and increasing demand for water resources, improving the efficiency of water use has become a critical scientific and practical challenge. The study examines modern approaches to water resource management applied in developed countries, including integrated water resources management, economic incentive mechanisms, and the alignment of environmental constraints with economic efficiency. Furthermore, based on global practices, the article assesses the prospects for improving water resource use in Uzbekistan, with particular emphasis on water-saving management mechanisms and ensuring long-term environmental sustainability.

Keywords: water resources, economic and ecological optimization, global experience, water resource management, water efficiency, sustainable development, environmental balance.

**SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK
OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI
TAHLILI****Umurzaqova Umida Nosirjanovna**

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, (PhD)

Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi IQ-101-25M guruh magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish masalalari jahon tajribasi asosida kompleks tahlil qilinadi. Iqlim o'zgarishi jarayonlarining jadallashuvi, suv resurslarining tabiiy cheklanganligi hamda suvga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi sharoitida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda suv resurslarini boshqarishda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, jumladan, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari va ekologik cheklavlarning uyg'unligi yoritiladi. Shuningdek, jahon tajribasi asosida O'zbekistonda suv resurslaridan

foydalanishni takomillashtirish, suvni tejashga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va barqaror ekologik muvozanatni ta'minlash imkoniyatlari ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: suv resurslari, iqtisodiy-ekologik optimallashtirish, jahon tajribasi, suv resurslarini boshqarish, suv samaradorligi, barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N05>

Kirish. So'nggi yillarda dunyo miqyosida suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish masalasi barqaror rivojlanish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Iqlim o'zgarishi, aholining o'sishi, qishloq xo'jaligi va sanoatda suvga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi hamda suv ekotizimlarining degradatsiyasi ko'plab mamlakatlarda suv boshqaruvining an'anaviy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda suvdan foydalanishni optimallashtirish iqtisodiy instrumentlar, ekologik cheklovlar va boshqaruvning havza tamoyiliga asoslangan modellari orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suv sarfini normativ asosda tartibga solish, suvdan foydalanishda iqtisodiy rag'batlar yaratish hamda suv resurslarining ekologik holatini doimiy monitoring qilish jahon amaliyotida o'zini oqlagan yondashuvlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday tajribalar suv tanqisligi sharoitida resurslardan samarali foydalanish bilan birga, atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish masalasi global miqyosda barqaror rivojlanish siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Iqlim o'zgarishi jarayonlarining jadallashuvi, suv resurslarining tabiiy jihatdan cheklanganligi hamda suvga bo'lgan talabning izchil ortib borishi ko'plab mamlakatlarda suvdan foydalanishning an'anaviy, asosan texnik yechimlarga tayanib shakllangan boshqaruv modelini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, suv resurslarini samarali boshqarish faqat suv ta'minotini kengaytirishga emas, balki mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik cheklovlarni hisobga olish va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini uyg'unlashtirishga asoslanishi lozim.

Mazkur yondashuvning huquqiy ifodasi sifatida Yevropa Ittifoqida qabul qilingan 2000/60/EC-sonli Suv asosiy direktivasi alohida ahamiyatga ega[1]. Ushbu direktiva suv resurslarini boshqarishda havza tamoyiliga asoslangan integratsiyalashgan yondashuvni joriy etib, suv obyektlarining ekologik holatini ustuvor mezon sifatida belgilaydi. Direktiva doirasida suvdan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik ekologik barqarorlik bilan bevosita bog'langan bo'lib, suv resurslarini boshqarish jarayonida ekologik oqimlar, suv sifati va ekotizim ehtiyojlarini majburiy hisobga olish talab etiladi. Shu orqali suvdan foydalanish iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash bilan birga, uzoq muddatli ekologik barqarorlikka xizmat qiluvchi normativ asosga ega bo'ladi.

Jahon tajribasida shakllangan ushbu tamoyillar O'zbekiston sharoitida ham izchil tatbiq etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-sonli "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori suv resurslarini boshqarishda samaradorlik va tejamkorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi[2]. Qarorda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarida yo'qotishlarni kamaytirish, suv hisobi va monitoringini takomillashtirish orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish

vazifalari belgilangan bo'lib, bu yondashuv suv ta'minotini kengaytirishdan ko'ra talabni boshqarishga asoslangan zamonaviy modelni aks ettiradi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot jarayonida suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasini yoritishda zamonaviy suv boshqaruvi nazariyalari va jahon amaliyotida shakllangan ilmiy yondashuvlarga tayangan holda kompleks metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot materiallari sifatida suv resurslarini boshqarishning konseptual asoslarini ochib beruvchi fundamental ilmiy maqolalar, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni asoslaydigan empirik tadqiqotlar tanlab olindi. Ushbu manbalar suvdan foydalanish jarayonini alohida iqtisodiy yoki ekologik muammo sifatida emas, balki o'zaro bog'liq yagona tizim doirasida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish konsepsiyasiga tayandi. Mazkur konsepsiya suv, yer va ekologik resurslarni yagona boshqaruv obyekti sifatida qarab, resurslardan foydalanishda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Savenije va Van der Zaag tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvda suv resurslarini boshqarish samaradorligi faqat texnik ko'rsatkichlar bilan emas, balki institutsional tuzilma, iqtisodiy manfaatlar va ekologik cheklovlar uyg'unligi orqali belgilanishi asoslab berilgan [3; 290-297]. Ushbu nazariy qarashlar maqolada metodologik tayanch sifatida qabul qilindi.

Metodik jihatdan tadqiqotda tizimli-tahliliy va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Tizimli yondashuv suv resurslaridan foydalanish jarayonini murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizim sifatida o'rganishga imkon berdi. Qiyosiy tahlil orqali turli mamlakatlarda shakllangan suv boshqaruvi modellari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi va ekologik natijalari solishtirildi. Xususan, Avstraliyaning Murray–Darling havzasida suv huquqlarini bozor mexanizmlari asosida taqsimlash tajribasi suv tanqisligi sharoitida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgani ilmiy jihatdan asoslangan [4; 148-156]. Mazkur tadqiqot suv bozorlarining moslashuvchanlikni kuchaytirishi va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishdagi rolini ochib beradi. Ekologik komponentni baholashda suv ekotizimlarining barqaror faoliyatini ta'minlash masalasi markaziy o'rin tutdi. Shu munosabat bilan ekologik oqim tushunchasi asosiy metodik mezon sifatida qo'llanildi. Poff va Zimmerman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suv oqimining o'zgarishi chuchuk suv ekotizimlariga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda tahlil qilingan bo'lib, ekologik oqimlarni saqlash suv resurslaridan foydalanishda majburiy ekologik cheklov sifatida qaralishi zarurligi ta'kidlangan [5; 1943-1969]. Ushbu yondashuv maqolada ekologik omillarni iqtisodiy qarorlar bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi.

Xususan, suv resurslaridan qayta foydalanish va suv ta'minoti barqarorligini oshirish masalalari alohida metodik yo'nalish sifatida tahlil qilindi. Singapur tajribasi asosida olib borilgan tadqiqotlarda qayta ishlangan suvni (NEWater) milliy suv ta'minoti tizimiga integratsiya qilish orqali suv tanqisligini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkinligi ko'rsatib berilgan [6; 611-621]. Ushbu model texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda institutsional boshqaruv va jamoatchilik ishonchining ahamiyatini ochib berishi bilan metodik jihatdan muhimdir.

Shuningdek, Isroil tajribasi ham suvdan foydalanishni optimallashtirishda muhim amaliy model sifatida tahlil qilindi. Tal tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tomchilatib

sug'orish texnologiyalarining keng joriy etilishi suv mahsuldorligini oshirishi bilan birga, tabiiy resurslarga bo'lgan ekologik bosimni sezilarli darajada kamaytirgani ilmiy asosda ko'rsatib berilgan [7; 52-63]. Ushbu tajriba suv tanqis hududlarda iqtisodiy va ekologik manfaatlarni uyg'unlashtirishning samarali usullaridan biri sifatida baholandi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan materiallar va metodlar majmuasi suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasini jahon tajribasi asosida chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Tanlangan metodologik yondashuvlar suvdan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni birgalikda ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqarish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan tahlil natijalari suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasi alohida texnik yoki moliyaviy choralar bilan emas, balki boshqaruvning tizimli modeli orqali hal etilishini ko'rsatdi. Suv resurslari iqtisodiy faoliyat uchun ishlab chiqarish omili bo'lishi bilan birga, ekologik tizimlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy tabiiy resurs sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli suvdan foydalanishni optimallashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ekologik cheklovlardan ajratib baholash mumkin emas. Integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish yondashuvi doirasida olib borilgan ilmiy qarashlar suv boshqaruvida rejalashtirish, monitoring va taqsimot bosqichlari yagona mantiqiy tizimda ishlaganda barqaror natijaga erishish mumkinligini asoslaydi. Agar ushbu bosqichlar o'zaro uzilib qolsa, qisqa muddatli iqtisodiy foyda uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy yo'qotishlarga olib kelishi ehtimoli kuchayadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy instrumentlarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning samaradorligi ekologik cheklovlar bilan uyg'unlashmagan holda cheklangan bo'lib qoladi. Avstraliyaning Murray-Darling havzasida suv bozorlarini shakllantirish tajribasi suv tanqisligi sharoitida resurslarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy moslashuvchanlikni oshirganini ko'rsatadi. Suv huquqlarining bozor mexanizmlari orqali harakatlanishi suvni yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo'naltirish imkonini bergan va shu orqali suv birligiga nisbatan iqtisodiy samaradorlikni oshirgan. Biroq tadqiqotlar shuni ham tasdiqlaydiki, bozor mexanizmlari o'z-o'zidan ekologik barqarorlikni ta'minlamaydi. Agar suv savdosi ekologik oqim me'yorlari, suv sifati standartlari va institutsional nazorat bilan mustahkamlanmasa, suv ekotizimlariga bo'lgan bosim ortib boradi va resurslarning degradatsiyasi xavfi kuchayadi. Demak, iqtisodiy optimallashtirish instrumentlari faqat ekologik cheklovlar bilan parallel ishlaganda barqaror natija beradi.

Mazkur muhokama ekologik oqim tushunchasining suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirishda markaziy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Oqim rejimining o'zgarishi, mavsumiylikning buzilishi, minimal oqim darajasining pasayishi yoki oqim tebranishlarining kuchayishi daryo ekotizimlarining tuzilishi va funksional barqarorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ekologik oqim talabini oddiy tavsiya sifatida emas, balki iqtisodiy qarorlar uchun majburiy chegaraviy shart sifatida qabul qilish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik oqimni e'tiborsiz qoldirgan iqtisodiy optimallashtirish qisqa muddatda foyda keltirishi mumkin, biroq uzoq muddatda suv ekotizimlarining yemirilishi va resurs salohiyatining pasayishiga olib keladi. Bu esa oxir-oqibat iqtisodiy samaradorlikning ham kamayishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, suv resurslaridan

foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish jarayonida ekologik oqim me'yorlari iqtisodiy instrumentlar bilan uzviy va uzluksiz bog'langan holda ishlashi lozim.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda tahlil qilingan jahon tajribasi suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasi O'zbekiston sharoitida ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Xususan, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish yondashuvi, iqtisodiy instrumentlarning ekologik cheklovlar bilan uyg'un qo'llanishi hamda ekologik oqim me'yorlarini saqlashga asoslangan boshqaruv modellari suv tanqisligi sharoitida resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Jahon amaliyotida suvni qayta taqsimlash, samaradorlikni oshirish va ekotizimlarni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatga erishilgan holatlar O'zbekiston uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur tajribalarni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirishda suv xo'jaligining transchegaraviy xususiyati, sug'oriladigan dehqonchilikning ustunligi va iqlim o'zgarishi ta'sirini inobatga olish zarur. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, suvdan foydalanishda iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish faqat qat'iy ekologik me'yorlar, samarali monitoring va institutsional muvofiqlik bilan birga olib borilgandagina barqaror natija beradi. Demak, mamlakatimiz uchun suv resurslarini boshqarishda jahon tajribasiga tayangan holda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi yondashuvlarni izchil joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Directive 2000/60/EC of the European Parliament and of the Council of 23 October 2000 establishing a framework for Community action in the field of water policy // Official Journal of the European Communities. - 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-sonli "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. -2023.
3. Savenije H.H.G., Van der Zaag P. Integrated water resources management: Concepts and issues // Physics and Chemistry of the Earth. 2008. - Vol. 33, No. 5. - Pp. 290-297.
4. Wheeler S., Loch A., Zuo A., Bjornlund H. Reviewing the adoption and impact of water markets in the Murray-Darling Basin, Australia // Journal of Hydrology. -2014. - Vol. 518. - Pp. 148-156.
5. Poff N.L.R., Zimmerman J.K.H. Ecological responses to altered flow regimes: a literature review to inform the science and management of environmental flows // Freshwater Biology. 2010. Vol. 55, No. 1. Pp. 1943-1969.
6. Lee H., Tan T.P. Singapore's experience with reclaimed water: NEWater // International Journal of Water Resources Development. - 2016. Vol. 32, No. 4. -Pp. 611-621.
7. Tal A. Rethinking the sustainability of Israel's irrigation practices // Water Research. - 2016. Vol. 90. -Pp. 52-63.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).